



Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston xalqining Stalingradni ozod qilishdagi ko'rsatgan qahramonliklari (1942-1943-yillar)

Zokirjanov Mirzoxid Shuhrat o'g'li

“Shon-sharaf” davlat muzeyi kichik-ilmiy xodimi

Annotatsiya: Mazkur maqola 1942-1943-yillarda Vatandoshlarimizning Stalingrad mudofaasidagi jasoratlari, O'rta Osiyo harbiy okrugi qismlarining shahar mudofaasida qahramonliklari, mashhur Pavlov uyi himoyachilari taqdiriga bag'ishlanadi.

Tayanch iboralar: Ikkinchi jahon urushi, Sobiq Ittifoq, Qizil Armiya, O'zbekiston, O'rta Osiyo harbiy okrugi, Stalingrad mudofaasi.

XX asrda insoniyat ikkita jahon urushini boshdan kechirdi, ular orasida Birinchi jahon urushi (1914-1918-yillar) va Ikkinchi jahon urushi (1939-1945-yillar) shularning jumlasiga kiradi. Ikkinchi jahon urushi insoniyat tarixidagi eng mudhish qirg'inbarot urush sifatida tarixga kirdi, ayni vaqtda bu urush butun dunyoni larzaga solgan hamda millionlab begunoh insonlarning halok bo'lishiga olib kelgan urush ham edi. Urush harakatlari Yevropa, Osiyo, Afrika mintaqalari, Tinch Okean havzalarida kechadi. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda bu urush natijasida 85 milliondan ziyod odam halok bo'lgan¹.

SSSR ning 1941-yil iyun oyida Fashistlar Germaniyasiga qarshi urush girdobiga tortilishi mamlakatda murakkab siyosiy vaziyatni vujudga keltirgan, butun sovet xalqi dushmanga qarshi kurashga o'tlanadi, har ikki tomon o'rtasida janglar bo'lib o'tadi. Stalingrad jangi XX asrning eng yirik janglaridan bo'lib, uning ko'lami va natijalari bo'yicha jahon harbiy tarixida olti oy davom etgan va 100 000 kilometr hududni qamrab olgan, jangovar hududning kengligi esa 800 kilometrni tashkil etgan. Stalingrad jangida har ikkala tomondan 2 milliondan ortiq kishi qatnashgan, Stalingrad shahrini mudofaa qilish uchun janglarda 40 000 dan ziyod stalingradliklar halok bo'lgan, shuningdek Stalingrad jangida nemislar armiyasi bilan birgalikda Italiya, Ruminiya va Xorvatiyaning qo'shinlari ham qatnashgan, jang harakatlari 1942-yilning 17-iyul kunidan 1943-yil 2-fevral kunigacha davom etgan. Jang dushman

¹ Аношкин В. Наумов Н. О стабилизации фронта обороны южного направления // Военно-исторический журнал.- 1982. № 10. С 18-24



aviatsiyasining 1942-yil yoz oylarida Stalingradga hujumi bilan boshlanadi². 1942-yilning bahoridan boshlab fashist nemis bosqinchilari dohiysi Adolf Gitler tomonidan “yozgi hujum”ning boshlanishi belgilanadi. Uning ko’rsatmasiga binoan-Sovet qo’shinlari tor-mor qilinib, butunlay yakson qilinishi kerak edi. Shuningdek Germaniya qo’mondonligi tomonidan ishlab chiqilgan rejaga binoan “Janub” armiya grupirovkasi Qrim va Kavkazni egallashi lozim edi. A. Gitler tomonidan tasdiqlangan “Blau” rejasida Stalingradni ishg’ol qilish ko’makchi vazifa hisoblanardi, bunday vazifani bajarish uchun general F.Paulyusning 6-dala armiyasiga yuklatilgan va ularning g’alabasiga umid qilishgan edi. Sobiq Ittifoq tomonidan esa dushman hujumiga qarshi armiya generali keyinroq marshal unvoniga erishgan Andrey Ivanovich Yeryomenko qo’mondonligidagi Stalingrad fronti qo’shinlari qarshilik ko’rsatadi, jangda A.I.Yeryomenkoning qo’shinlari Obganerva qishlog’i yonida dushmanga qaqshatqich zarba beradi. Stalingrad jangida Sovet qo’shinlari dushman armiyasini yakson qiladi³.

Ma’lumot o’rnida shuni takidlash lozimki, SSSR hali hammon 1942-yilning yoz oylarida ham o’zining ittifoqchilari Buyuk Britaniya va AQSh ning yordamisiz dushmanga qarshi kurashardi. Buning natijasida Moskva jangi Germaniya qo’mondonligi tomonidan ishlab chiqilgan Blitzkrieg rejasini barbod qilishga va sovet-german frontining janubida esa Sovet armiyasi tomonidan nemislarga qaqshatqich zarba berishga erishiladi, general Vasiliy Ivanovich Chuykov qo’mondonligidagi 62-armiya jangchilari va mayor M.M. Shumilov qo’mondonligidagi 64-armiya askarlari bukilmas iroda, jasorat na’munalarini amalda namoyon etadilar. Ayniqsa Mamayev Kurgan tepaligi (hozirda Volgograd shahri yaqini) uchun jang Stalingrad jangining bir qismi bo’lib, 1942-yilning sentabr oyidan 1943-yilning yanvar oyigacha davom etadi, jangda armiya bo’linmalari, Qizil Armiya polklari, dengiz va daryo flotlari tomonidan qo’llab quvvatlangan. Turli arxiv ma’lumotlariga qaraganda janglar 135-140 kun davom etgan⁴.

Nemis-fashist bosqinchilari va ularning satenlit ittifoqchilariga qarshi kechgan jangda polkovnik N.F. Batyuk boshchiligidagi 284-armiya jasorat ko’rsatadi, tepalik uchun jang qilayotgan sovet jangchilariga Ichki Ishlar Xalq Komissarligining tuzilmalari

² Дзюбан В.В. Сталинградская битва: Величие и Наследие победы.- Москва: АСТ, 2001. С 231

³ Ахтямзин А.А. Сталинградское сражение в зеркале историографии 60 лет спустя.- Волгоград 2002 С 213

⁴ Адам В. Катастрофа на Волге мемуары Ф.Паулюса .- Смоленск ООО Альпина 2001. С 480



kelib qo'shilishi bilan dushman askarlari chekina boshlagan⁵. Stalingrad jangida jasur jangchilar Vasiliy Zaysev, Maksim Passar, Mixail Ivanov, Mixail Panikaxalar mardlik ko'rsatadilar, xususan Vasiliy Zaysev 225 fashist askarlarini yakson qiladi Mixail Panikaxa esa dushman tanklarini portlatib yuboradi va o'zi ham qahramonlarcha jangda halok bo'ladi⁶.

Mashhur Pavlov uyi mudofaasi 58 kun davom etgan va dushmanning tinkasini quritgan. Pavlov uyi himoyachilari orasida kichik serjant Ya.F.Pavlov, serjant I.A.Afanesev, yefreytr V.Glushenko, Aleksandr Aleksandrov, Andrey Sobgayda va shuningdek o'zbek jangchilaridan Ahmad Turdiyev, Kamoljon Turg'unovlar ham ishtirok etishgan. Kamol Turg'unov O'zbekistonning Namangan viloyatidan bo'lib To'raqo'rg'onda tavalud topgan. Bu inson urush yillarida juda ko'p fashistlarga qarshi janglarda mardonavor jang qiladi. Ukraina, Bellorussiya, Ruminiya, Vengriya davlatlarini dushmandan ozod qildi. Urushdan so'ng u ona yurti Bardanko'l qishlog'iga qaytib keladi. Hayotini mehnat bilan bog'lab keng sovxoz dalalarda traktorni boshqaradi va ulkan oilani barpo etadi: u 14 ta farzandning otasi, 65 nafar nevara va 85 nafar evaraning mehribon bobosi edi. Kamol Turg'unovning o'g'li Samig'jon Turg'unov bergan ma'lumotlarga qaraganda otasi K.Turg'unov jangovar do'stlari bilan Volgograd shahrida tez-tez ko'rishib turishgan va 9-may "G'alaba paradlariga ishtirok etishgan"⁷. Hozirgi kunda Kamoljon Turg'unovning rasmi Pavlov uyining boshqa himoyachilari bilan birga Pavlov uyi yodgorlik majmuasi devorlarida saqlanib kelinmoqda. Bu esa "Stalingrad jangi" deb nomlangan muzey zalini bezab turibdi. Kamoljon Turg'unovning o'chmas xotirasiga bag'ishlab operator va kinorejissor Davron Salimov tomonidan "Uzoq yo'llardan uyga" nomli hujjatli film suratga olingan. Kamoljon Turg'unov jasorati yoshlarimiz uchun na'muna bo'la oladi, uning xotirasi qalbimizda mangu muhrlanib qoladi. Bunday mard o'zbek jangchilari poyida ta'zimdamiz.

Daxshatli jang maydoni yosh jangchi qiz Yelena Stempkovskaya (1921-1942-yillar) ni ham o'z domiga tortdi, jasur jangchi qiz ona Vatanini himoya qilish uchun armiya safida xizmat qiladi. U Stalingrad uchun janglarda shtab va harakatdagi armiya o'rtasidagi aloqalarni ta'minlab turadi, biroq 1942-yili Zimovenko qishlog'i uchun kechgan janglarning birida gitlerchilar tomonidan asir olinadi. Fashist gazandalari yosh jangchi qizdan harbiy sirni bilib olish maqsadida ayovsiz qiynashadi:

⁵ Энтони Бивер. Сталинград хроника, факты люди.- Москва 1999 С 343

⁶ Мягков Ю.В. Сталинградская битва.- Смоленск.- Тип 2013. С 235-240

⁷ Ismoilov N. Pavlov uyi va uning himoyachilari Toshkent O'zbekiston 2022. B 5-10



qo'llarini chopib tashlashadi va turli qiynoqlarga solishadi⁸. Ko'zlari qonga to'lgan qiz dushmanga nafrat bilan qaraydi va dushman savollariga javob bermaydi. Fashistlar qahramon qizdan harbiy sirni bilib olishmagach uni otib o'ldiradilar. Ayovsiz urush qanchadan-qancha nozik-nihol xotin- qizlar taqdirini azob uqubatlarga o'zgartirib yubordi. Bu ma'suma xotin-qizlarimiz urush nomini yo'q qilish uchun, tinchlik, osudalik hayotni butun kelajak- yosh avlodga in'om etish uchun mardonavor kurashdilar va aziz jonlarini qurbon qildilar.

Xulosa:

1939-1945-yillardagi Ikkinchi jahon urushi insoniyat tarixidagi eng mudhish qirg'inbarot urush sifatida tarixga kirdi. "Stalingrad jangi" urushlar orasida tub burilish yasagan jang hisoblanadi. Xalqimiz Stalingradni mudofaa qilishda bukilmas iroda ko'rsatgan, ayniqsa O'rta Osiyo harbiy okrugida safarbar qilingan tuzilma va qismlar urushning barcha janglarida xususan Stalingrad jangida ham qatnashadi. Fashizm ustidan g'alaba qozonilgan kun - 9-may O'zbekistonda "Xotira va Qadrlash kuni" sifatida nishonlanib kelinmoqda. "Stalingrad jangi" xotiralari hali- hozirgacha o'rganilib kelinmoqda. Tarix saxifalarida insoniyat uchun juda og'ir iz qoldirdi. Shuningdek nemis-fashist bosqinchilari tomonidan butun boshli qishloqlar va shaharlar aholisi bilan yo'q qilib yuborildi. Insoniyat tarixida bu davrda fashistlar insonni xom-ashyo sifatida foydalandilar: O'lim lagerlarini barpo etib, gaz kameralaridan foydalanib, zavod fabrikalarni yurg'izdilar. Bu esa jahon tarixida genotsid deb nomlanadi. Xalqlarning, millat-ellatlarning birdamligi bilan bu qirg'inbarot urushni yengishga erishildi. Qanchadan qancha insonlar taqdiri qiynoq azoblarga mahkum bo'ldi. Shunga qaramasdan jasoratli va mard insonlar tomonidan qilingan harakatlar yorug', tinch va osuda hayotga olib chiqdi. Biz bu insonlarning jasorati oldida hamisha bosh egamiz.

⁸ <https://Podrobno.uz> saytidan

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Аношкин В. Наумов Н.Г Сталинградская битва 1942-1943-гг \ \ Военно исторический журнал.- Москва 1982.С 18-24
2. Андроников Н.Г. Битва за Сталинград 1942-1943. Москва АСТ 1988.С 433-434
3. Дзюбан В. Сталинградское сражение в Советской историографии. Москва 2001. С 231
4. Ахтямян А. Сталинградская битва Москва 2008.С 235-240
5. Бешанов В. Герои Сталинграда.-Москва 1999. С 624
6. Энтони Бивер Сталинград, хроника люди Москва 1999.С 343
7. Ismoilov N. Pavlov uyi himoyachilari (защитники дома Павлова) Toshkent "O'zbekiston" 2022.-В 5-10
8. Ziyoyev X.Z. O'zbekiston Birinchi va Ikkinchi jahon urushi davrida Toshkent "O'zbekiston" 2011. В 63